

O‘ZBEKISTON SSRDA ARAB YOZUVI ISLOHOTIDAN LOTIN ALIFBOSIGA O‘TISH JARAYONI: TARIXIY VA IJTIMOY-MADANIY OMILLAR (1918–1929-YILLAR)

Djabbarov Shuxrat Baxtiyorovich

Toshkent viloyati Yangiyol shahar 1-son Texnikumi Tarix fani o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21898354>

Annotatsiya. Mazkur tezisda 1918–1929-yillarda O‘zbekiston SSR hududida arab yozuvini isloh qilish va undan lotin yozuviga o‘tish jarayoni tahlil qilinadi. Unda jadid ma’rifatparvarligi, yangi usul maktablari, milliy matbuot, til va imlo qurultoylari, shuningdek, sovet maorif siyosatining alifbo siyosatiga ta’siri yoritiladi. Jarayonda “Chig‘atoy gurungi”, 1921-yilgi til va imlo qurultoyi, 1923-yil Buxoro konferensiyasi, 1926-yil Boku turkologik qurultoyi hamda 1927–1928-yillardagi yangi alifboni joriy etishga qaratilgan tashkiliy tadbirlarning o‘rni ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, arab yozuvi, lotin alifbosi, imlo, alifbo siyosati, jadidlar, “Chig‘atoy gurungi”, til va imlo qurultoyi, Boku qurultoyi, maorif.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘zgarishlar yozuv masalasini ham dolzarb muammoga aylantirdi. Arab grafikasi asosidagi o‘zbek yozuvi bir necha asr davomida diniy-ma’rifiy hayot, mumtoz adabiyot, madrasa va maktab ta’limi, hujjatchilik hamda kitobat madaniyatining asosiy vositasi bo‘lib kelgan. Biroq XIX asr oxiri – XX asr boshlarida arab grafikasining o‘zbek tili tovush tizimini to‘liq ifodalashdagi ayrim cheklovlari, unilarning muntazam belgilanmasligi va harflarning turli shakllarda yozilishi savod chiqarish jarayonida qiyinchiliklar tug‘dirdi. Shu sababli yangi usul maktablari uchun soddalashtirilgan va yagona imlo yaratish masalasi kun tartibiga chiqdi.

Jadid ma’rifatparvarlari yozuv islohotini maktab va maorif taraqqiyoti bilan bog‘ladilar. Ular tomonidan bir qator darsliklarning yaratilishi ona tilida ta’lim berish, savod chiqarishni yengillashtirish va o‘quv materiallarini xalq tiliga yaqinlashtirishga xizmat qildi. Shu bois dastlab yozuvni butunlay almashtirish emas, balki mavjud arab grafikasini o‘zbek tili va yangi maktab ehtiyojlariga moslashtirish g‘oyasi ustun bo‘ldi.

1917-yildan keyingi siyosiy jarayonlar til va yozuv masalasining ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini yanada kuchaytirdi. 1919-yilda “Chig‘atoy gurungi”ning tashkil topishi bu boradagi muhim voqealardan biri bo‘ldi. Guruh turkiy merosni o‘rganish, o‘zbek tilining ichki imkoniyatlariga tayangan adabiy tilni shakllantirish, lug‘at va adabiyotni boyitish hamda imloni tartibga solish masalalari bilan shug‘ullandi. “Iştirakiyun” gazetasida guruh faoliyatining yoritilishi yozuv va til muammolarining keng jamoatchilik muhokamasiga olib chiqilganini ko‘rsatadi.

1920-yilda “Iştirakiyun” sahifalarida Elbekning “Imlo masalasi” nomli maqolalari e’lon qilindi. 18-sentabr, 19-sentabr va 7-oktabr kunlaridagi chiqishlar arab yozuvi asosidagi o‘zbek imlosini tartibga solish zaruratini ko‘rsatdi. Mazkur bahslar natijasida til va imlo qurultoyini chaqirish masalasi kun tartibiga chiqdi. 1920-yil 27-noyabrda Elbekning “Imlo va til qurultoyining chaqirilishi oldidan” maqolasi e’lon qilinib, imlo, harf, sarf-nahv, adabiyot va maorif masalalarini birgalikda muhokama qilish zarurligi ta’kidlandi.

1921-yil yanvar oyida o‘lka o‘zbek til va imlo qurultoyi o‘tkazildi. “Qizil bayroq” gazetasida “Imlo haqida birinchi kengash o‘ltirishi”, “Til va imlo qurultoyi”, “Toshkandda birinchi imlo kengashi o‘ltirishi” kabi materiallar e’lon qilindi. Qurultoyda harf va imlo, sarf-nahv, adabiyot, maorif hamda ilmiy markaz tashkil etish masalalari ko‘rib chiqildi. Qurultoy qarorlari keyinchalik 1922-yilda 36 betlik alohida risola shaklida nashr qilindi.

Qurultoydan keyin imlo masalasi “Qizil bayroq”, “Turkiston”, “Farg’ona” kabi nashrlarda davom etdi. Abdikarimning “Harfimiz”, Elbekning o’lka o’zbek qurultoyi haqidagi maqolalarida arab harflarini o’zbek tovushlariga moslashtirish, unilarni ifodalash, ayrim harflarni qisqartirish va savod chiqarishni yengillashtirish masalalari ilgari surildi. 1922-yilgi o’zbek madaniyat va maorif xodimlarining o’lka qurultoyida ham maktab, o’qituvchi, darslik, savodxonlik va adabiy til masalalari yozuv islohoti bilan bog’liq holda ko’rib chiqildi.

1923-yilda Buxoroda O’rta Osiyo o’zbeklarining til va imlo konferensiyasi o’tkazildi. Unda til, imlo, adabiy til, maktab va yozuv me’yorlari muhokama qilindi. Konferensiya qarorlarining Turkiston Respublikasi Maorif xalq komissarligi tomonidan tasdiqlanishi yozuv masalasi davlat maorif siyosatining muhim yo’nalishiga aylanganini ko’rsatadi. Shu bilan birga, arab yozuvini saqlagan holda uni o’zbek tiliga moslashtirish bo’yicha qabul qilingan choralar maktab, matbuot va nashriyotda to’liq yagona me’yorni ta’minlay olmadi.

1920-yillar o’rtalariga kelib yozuv masalasida ikki asosiy qarash shakllandi. Birinchi yo’nalish arab yozuvini takomillashtirish va tarixiy-madaniy meros bilan uzviylikni saqlash tarafdori bo’ldi. Ikkinchi yo’nalish esa arab grafikasining o’zbek tili fonetik tizimi, matbaa, yozuv mashinkasi, telegraf va zamonaviy maktab ehtiyojlariga yetarlicha mos emasligini ta’kidlab, lotin yozuviga o’tishni taklif qildi.

1925-yildan boshlab “Maorif va o’qutg’uchi” jurnalida lotin alifbosi masalasi ochiq muhokama qilina boshladi. Shu davrda arab yozuvini ayrim o’zgartirishlar bilan saqlab qolish tarafdorlari ham mavjud edi. 1925-yil Samarqanddagi til mutaxassislari va o’zbekshunoslar kengashida arab yozuvini ma’lum o’zgartirishlar bilan saqlash qarashlari ustun kelgan bo’lsa-da, lotinlashtirish g’oyasi tobora kuchaydi.

Lotinlashtirish jarayonida 1926-yil Boku shahrida o’tkazilgan Birinchi Butunittifoq turkologik qurultoyi alohida ahamiyat kasb etdi. Qurultoyda turkiy tillar, shevalar, fonetika, turkiy yozuvlar, arab va lotin alifbolari, imlo, o’qitish usullari va terminologiya masalalari muhokama qilindi. Boku qurultoyi turkiy xalqlar uchun yangi va o’zaro yaqinlashtirilgan alifbo yaratish g’oyasini kuchaytirdi.

Qurultoydan keyin O’zbekiston matbuotida lotinlashtirish masalasiga bag’ishlangan maqolalar ko’paydi. Ashurali Zohiriy, Rahim In’omov, Mannon Ramz va boshqa ziyolilar bu masala yuzasidan o’z qarashlarini bildirdilar. Rahim In’omovning 1926-yilda “Maorif va o’qutg’uchi” jurnalida e’lon qilingan “Lotin alifbosi uchun kurash” maqolasida lotin yozuvining turkiy tillar uchun qulayligi, matbaa, yozuv mashinkasi, stenografiya va telegraf bilan bog’liq afzalliklari asoslab berildi.

1926-yildan boshlab lotinlashtirish tashkiliy tus oldi. Yangi alifbo masalasi ilmiy markazlar, maorif idoralari, matbuot va davlat tashkilotlari faoliyatiga kirib bordi. 1927-yilda yangi o’zbek alifbo kitobini tuzish va nashr etish, imlo qoidalarini ishlab chiqish, rahbarlar tayyorlash uchun markaziy kurs tashkil etish, mahallalarda lotinchilar to’garaklarini tuzish, o’rta maktablarda yangi alifboni o’qitishni joriy etish hamda viloyat yangi alifbo qo’mitalarini ishga solish kabi vazifalar belgilandi. Qo’qonda ham lotinlashtirish bo’yicha mahalliy tashkiliy ishlar olib borildi.

1928-yil 17-yanvarda O’zbekiston Markaziy Ijroiya Qo’mitasi Rayosati majlisida Yangi alifbo markaziy qo’mitasi tarkibi tasdiqlandi. Uning tarkibiga Oxunboboyev, Ramz, Akmal Ikromov, Fayzulla Xo’ja, Botu, Elbek, Fitrat, G’ozi Olim, Qayum Ramazon, Shokir Sulaymon va boshqa siyosiy hamda madaniy arboblardan iborat kiritildi. Bu holat lotinlashtirish jarayonida davlat, partiya, maorif va ilmiy-adabiy doiralar vakillari birgalikda qatnashganini ko’rsatadi.

Shunday qilib, 1918–1925-yillarda arab yozuvini isloh qilishga qaratilgan urinishlar asosan maktab, matbuot va adabiy til ehtiyojlaridan kelib chiqqan bo'lsa, 1925–1929-yillarda lotinlashtirish jarayoni tobora davlat va maorif siyosatining tarkibiy qismiga aylandi. 1921-yilgi til va imlo qurultoyi hamda 1923-yilgi Buxoro konferensiyasi arab yozuvini takomillashtirishning muhim bosqichlari bo'lgan bo'lsa, 1926-yilgi Boku turkologik qurultoyi lotinlashtirish tarafdorlarining mavqeini sezilarli darajada kuchaytirdi.

1929-yilga kelib alifbo, til va imlo masalalari yangi bosqichga kirdi. “Qizil O'zbekiston” gazetasida Elbekning “Til, atama va imlo bahslari” maqolalari e'lon qilinib, adabiy til, terminologiya, imlo va cho'zg'ilar masalalari muhokama qilindi. Bu jarayon lotinlashtirish faqat harflarni almashtirish emas, balki adabiy tilni standartlashtirish, terminologiyani tartibga solish va yangi maorif tizimiga mos yozuv yaratish bilan bog'liq kompleks jarayon bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, 1918–1929-yillarda O'zbekiston hududida arab yozuvini isloh qilishdan lotinlashtirishga o'tish bir necha bosqichda kechdi. Dastlab yozuvni mavjud arab grafikasi doirasida takomillashtirish, imloni birxillashtirish va savod chiqarishni yengillashtirish maqsad qilingan bo'lsa, keyinchalik bu urinishlar o'rnini lotinlashtirish g'oyasi egalladi. Mazkur jarayonda jadid ma'rifatparvarligi, milliy matbuot, til va imlo qurultoylari, sovet maorif siyosati, matbaa-texnika ehtiyojlari hamda Boku turkologik qurultoyi muhim omil bo'ldi. Natijada 1918–1929-yillar O'zbekiston SSR alifbo siyosatining tubdan o'zgarish davri sifatida namoyon bo'ldi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Жамолхонов Х., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. Мажмуа. 1-китоб. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2017. – Б. 5–12.
2. Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905–1917 гг. – Ташкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1941.
3. Элбек. Имло масаласи // Иштирокиюн. – 1920 йил 19 сентябрь. – 193-сон; Элбек. Имло масаласи // Иштирокиюн. – 1920 йил 7 октябрь. – 206-сон.
4. Абдукарим. Ҳарфимиз // Қизил байроқ. – 1921 йил 5 январь. – №11; Тошкент канферинсийасида имло масаласи // Қизил байроқ. – 1921 йил 11 январь. – №13; Элбек. Ўлка ўзбек қурултойи ва унинг қолдирғон таъсири // Қизил байроқ. – 1921 йил январь.
5. С.Уйғур. Биздаги ҳарф ислоҳи масаласи тарихига бир қараш // Маориф ва ўқутғучи. – Тошкент, 1926. – №4. – Б. 3–7.